



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**BAYRAM ERTALIKLARI  
(USLUBIY QO'LLANMA)**



**Muallif:**

**B.Qo'chqorov**



Namangan Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası yig'ilishining

№ 8 bayonnomasidan

**KO'CHIRMA**

«23» mart 2011 yil

Namangan shahri

Qatnashdilar:

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri  
pedagogika fanlari nomzodi YU.Shaamirova,  
filologiya fanlari nomzodi A.Xalilbekov, filologiya  
fanlari nomzodi, dosent D.Qozoqov, filologiya  
fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova,  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
I.Ulug'xo'jayev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Jamalova, o'qituvchilar A.Suyarova,  
R.Lutfutdinova, H.Umarov, B.Qo'chqorov,  
N.Qirg'izov, SH.Xo'jamberdiyeva, G.Xusanova,  
B.Abdurahmanov

**Ko'rilgan masala:** Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri  
pedagogika fanlari nomzodi YU.Shaamirova o'qituvchi B.Qo'chqorovning 2011-  
yil mart oyida boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabalari  
hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun «Bayram ertaliklari» mavzusida  
tayyorlagan uslubiy qo'llanmasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Men B.Qo'chqorovning ushbu uslubiy qo'llanmasi bilan ichki taqrizchi  
sifatida tanishib chiqdim. U ushbu uslubiy qo'llanmasini tayyorlash jarayonida o'z  
oldiga DTS talablaridan kelib chiqib jiddiy maqsadlarni qo'ygan. Sinfdan tashqari  
ishlar albatta o'quvchi ma'naviyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Men  
shularni hisobga olib, B.Qo'chqorovning «Bayram ertaliklari» mavzusida uslubiy  
qo'llanmasini ijobiy baholash mumkin, degan xulosaga keldim.

Muhokamada filologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi M.Jamolova  
so'zga chiqdi:

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi B.Qo'chqorovning  
«Bayram ertaliklari» mavzusidagi uslubiy qo'llanmasini o'qish orqali shunga amin

bo'ldimki, mazkur «Bayram ertaliklari»dan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, BT va STI yo'nalish talabalari pedagogik amaliyot darsida keng foydalanishlari mumkin. Sinfdan tashqari ishlar nafaqat o'quvchilar ma'naviyatini oshiradi, balki o'quvchilar nutqini ravon bo'lishiga, ularga ijodiy tafakkurni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shundan so'ng o'qituvchi D.Qozoqov so'zga chiqib, o'z fikrini bildirdi.

O'qituvchi B.Qo'chqorov haqiqatdan ham tajribali, bilimdon, talabchan o'qituvchi. Men «Bayram ertaliklari»dan ko'p narsani o'rgandim. Ayniqsa, o'quvchilar ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularga milliy istiqlol g'oyalariga, milliy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta.

Kafedra yig'ilishi

#### **QAROR QILADI:**

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi B.Qo'chqorovning «Bayram ertaliklari» mavzusidagi uslubiy qo'llanmasi yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar inobatga olinsin.
2. B.Qo'chqorovning «Bayram ertaliklari» mavzusidagi uslubiy qo'llanmasi qoniqarli deb topilsin.
3. Ushbu uslubiy qo'llanma «Ziyo net»ga kiritishga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

pedagogika fanlari nomzodi  
YU.Shoamirova

Kotiba:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Hamidova

NamDU pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedra o'qituvchisi B.Qo'chqarovning «Bayram ertaliklari» mavzusidagi uslubiy  
qo'llanmasiga

TAQRIZ

O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi shakl va mazmunini boyitib borish talab etiladi. Lekin har qanday vaziyatda u buyuk tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, mustaqilligimiz g'oyalari asosida shakllanishi, rivojlanishi kerak.

«Bayram ertaliklari» mavzuida tayyorlangan mazkur uslubiy qo'llanma barcha boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va shu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, respublikamizda o'tkazilayotgan ta'lim islohotlariga hamohang holda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni aqlli, bilimdon, chin inson qilib tarbiyalashda yaqindan yordam beradi.

Ushbu «Bayram ertaliklari» uslubiy qo'llanmasi mukammal va puxta tuzilgan reja asosida muayyan ketma-ketlikda bolalarning yosh xususiyatidan kelib chiqib, soda, ravon, tushunarli usulda tayyorlangan.

Mazkur «Bayram ertaliklari» uslubiy qo'llanmasidan maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarning boshlang'ich sinflarida, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning pedagogik amaliyot jarayonlarida foydalanishi mumkin.

Namangan Davlat universiteti qoshidagi

NamDU pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi B.Qo'chqarovning «Bayram ertaliklari» mavzusidagi uslubiy  
qo'llanmasiga

TAQRIZ

Milliy pedagogika asoschilaridan biri A.Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» degan edilar. Darhaqiqat, umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lami keyingi paytlarda kengayib bormoqda. Mazmuni sifat jihatidan yangilanmoqda. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan insonlardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, fidoiylilikni, mas'uliyatni, hamda o'z kasbining haqiqiy ustasi, jonkuyari bo'lishni talab etadi.

Ushbu qo'llanmani tayyorlashdan maqsad- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sohasiga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashish, ishni sifat, mazmun jihatidan to'g'ri tashkil etishdan iborat.

Maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun sinfdan tashqari amalga oshirayotgan ishlariga amaliy yordam berish hamda qulayliklar yaratish qo'llanmaning asosiy vazifasidir.

Taqrizchi:

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi

### **So'z boshi**

O'zbekiston Respublikasi DTSda ta'kidlanishicha «boshlang'ich ta'lim mazmunida bolalarga nafosat me'yorlarini singdirish, o'quvchilarning go'zallikka bo'lgan munosabatini va intilishini shakllantiradi. Nafosat tarbiyasi faqat musiqa, tasviriy san'at darslaridagina emas, balki sinfdan tashqari o'tkaziladigan turli tadbirlarda ham berib boriladi. Bunda tadbirlar qatorida badiiy-musiqali ertaliklarning ahamiyati beqiyos. Ertaliklar tayyorgarlik va ularni o'tkazish davomida o'quvchilarning didi, faolligi, ijodi, fikrlashi o'sib, sinf jamoasining uyushqoqligi, ahilligi va quvnoqligi yanada mustahkamlanadi. Turli tarixiy sanalar, bayramlar, shoir-yozuvchilar ijodi yoki muayyan ahloqiy, ijtimoiy mavzular bo'yicha o'tkaziladigan ertaliklar ishtirokchi o'quvchilarning ham, tomoshabin bolalarning ham zehni-zakovati, hushyorlik epcilligi va mahoratini, oshiradi, shuningdek, iste'dodining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ertaliklar bolalarning dunyoqarashi va saviyasini kengaytirib, ifodali o'qish malakasini shakllantiradi va san'atga bo'lga muhabbatini o'stiradi.

O'qituvchi badiiy-musiqali ertalikka tayyorgarlik ko'rishda, avvalo, sinf jamoasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda sahnanomani tuzib oladi. Sahnanoma rollari o'quvchilarning ijro mahoratlari hisobga olinib taqsimlanadi. (repetitsiyalar davomida rollar almashtirilishi mumkin). Ertalikni tayyorlash davomida ijrochilarning kiyim-liboslari, sahna bezagi, musiqa vositalari va namoyish qilinadigan turli plakat-yozuvlar ham taxt qilinadi. Sahnanoma matnidagi she'r va gaplar oldindan yodlanmasdan qayta-qayta o'qilib, o'quvchilar xotirasiga joylanadi. Har bir ijrochining roli, harakati o'qituvchi-rejissyor tomonidan ko'rsatib beriladi. Tayyorgarlik oxirida bosh repetisiya o'tkazilib, maktab rahbarlari va tajribali o'qituvchilarning fikr-mulohazalari eshitilib, muayyan o'zgarishlar qilinishi mumkin.

E'tiboringizga havola qilinayotgan sahnanomalar boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan. Ulardan foydalanishda ijodiy yondoshib, matnlarga muayyan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

## O'ZBEKISTON- MENING VATANIM.

Boshlovchi: Hurmatli mehmonlar! Qadrli o'quvchilar, aziz ustozlar. Bugun Turon o'lkasida katta shodiyona. Respublikamizning turli burchaklarida, maktab bog'chalarida, mahallada va har br xonadonda tantanali bayram O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni nishonlanmoqda.

(O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi)

**Boshlovchi:** *Assalom mustaqil O'zbekistonim*

Assalom qudratli nurli bo'stonim

Mustaqillik mangu bo'lsin

Bizdek farzandlaring doim bor bo'lsin!

Boshlovchi: Vatan! Ne-ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli, fazli kamoli uchun jon fido etgan zamin. El borki, Vatan bor. Vatan borki, el bor. Elsiz vatan biyobon, Vatansiz el- darbadar. Shuning uchun qadimda elim deya Vatansiz, el e'zoz etganlar. El qadri bilan yashagan kishilarni vatanparvar deya ardoqlaganlar.

O'quvchi: Begona yurtga- bahor ham go'zal emas.

O'quvchi: Kishi Vatansiz bulbul qo'shiqsizdir.

O'quvchi: Yashash Vatanga xizmat qilish deb bejiz aytilmagan.

O'quvchi: Onamdek ardoqli azizsan Vatan

Sen menga qadrdon tug'ilgan makon

Men seni avaylab, asrayman har choq

Vijdonimdek toza, tushurmasdan dog'.

(ASHULA «MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI»)

Boshlovchi: Jonajon yurtimizni mustaqil Vatan deb ataymiz bu ko'hna diyor torlarini shundayin chertib yubordiki, endi uning sehrli va mazmun sadalaridan dunyo mamlakatlari ko'z o'ngida O'zbekiston siymosi namoyon bo'lmoqda.

Bugun biz istiqbolimizni, erkimizni, mustaqilligimizni sharaflaymiz, bayramimizni qo'shiqlarda kuylaymiz.

O'quvchi: Bugun bayram xalqim ozod

Erk bayrami yurtim obod.



Mustaqillik bayrami erkindir til  
Quvonch shodlik bayrami  
Quvonchda yuragimiz  
Ko'chalarni to'ldirib biz.

O'quvchi: Mustaqillik, kuylayman seni  
Bor ovozim kuylarim bilan  
Kerak bo'lsa qo'llarim bilan  
Mustaqillik kuylayman seni  
Bor san'atim san'atim bilan  
Mustaqillik asrayman seni  
Kerak bo'lsa hayotim bilan  
Bayram kuyin chalamiz  
Baxtiyormiz, erkin quvnoq  
Erkin bayram qilamiz  
Axir bugun bayram yurtimiz to'yi

Boshlovchi: Bog'ida yayrab o'sdim diyorim  
O'zimda mening erk ixtiyorim  
Quyosh o'lkasi mangu bahorim  
Chiroyga to'lgan O'zbekistonim  
Shirin orzuday so'lmas bog'laring  
Tuprog'ing oltin kondir tog'laring

Boshlovchi: Aziz bolajonlar bizning serquyosh hur o'lkamiz ezgulikda o'zining madhiyasi, gerbi, bayrog'iga konstitutsiyasiga ega. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i Oliy Majlisning navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

O'quvchi: Barog'imda yulduzlar bor, oylar bor  
Yashil rangda yashnab turgan joylar bor  
Oqligida oppoq tilak o'ylar bor  
Hilpiragan sayin ko'zim quvonadi  
Yurtimizni dadil olg'a boshlaydi.

O'quvchi: Bayroqdagi oq rang muqaddas tinchlik ramzidir. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflikni orzu va hayollar tozaligini bildiradi.

O'quvchi: Yashil rang tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pincha xalqlarda navqironlik, umid va shodlik timsoli hisoblanadi.

O'quvchi: Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shqin urib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

O'quvchi: Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Yulduzlar xalqlar uchun ilohiy timsol sanalgan. Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham an'analarimiz qadimiy quyosh yilnomasiga bevosita aloqadordir.

Boshlovchi: O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi oliy Majlisning X sessiyasida 1992-yil 3-iyul kuni tasdiqlangan.

O'quvchi: Hadislardan Vatanni sevmok iymondandir dkiyladi. Bu vatanparvarlikning ham milliy ham umuminsoniy jihatlaridir.

Boshlovchi: Vatanni sevish deganda

O'quvchi: O'z xalqining tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish

O'quvchi: Qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan boy moddiy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash.

O'quvchi: Go'zal va ma'noli urf odat, rasm-rusm va udumlarni qadrlay bilish ularni davom ettirish.

O'quvchi: Milliy adabiyot, musiqa memorchilik va barcha an'analardan rohatlanish ularni asrash va rivojlantirish

Boshlovchi: Ajoyib Vatandoshlr ajdodlar Amir temur, At.termiziy, Bahouddin Naqshbandiy nomi bilan ularning ulug' ishlari va shunday ajoyib xalq, yurt hamda uning boy tili va madaniyati bilan faxrlanish lozim.

O'quvchi: Yurtim senga she'r bitdim bu kun

Qiyosingli topmadim aslo

Shoirlar bor o'z yurtini butun

Qanotida kumush diyori.

Bir o'lka bor dunyoda biroq

Bitilmagan dostondir bari

Faqat ojiz qalamim manim

O'zbekiston Vatanim manim

(Raqs va qo'shiqlar ijro etiladi)

## Mavzu: USTOZ ULUG' ZOT

(Ustoz va murabiylar kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbir) o'tkazish joyi:  
Bayram o'tkaziladigan xona bayramona bezatiladi. Boshlovchi Bugungi shodiyonamiz ulug' ustozlarimiz kuniga bag'ishlangan" Ustoz tantanamizga xush kelibsiz!

Bolalar: Salomim so'lim-so'lim,  
Ko'ksimdadir o'ng qo'lim.  
Eng avvalo ustozlar  
Assalomu alaykum!

Bolalar: Assalom ey qalb to'ridan olgan, ey buyuk zot.  
Bosh egunniz qarshingizda Ta'zim aylab umrbod.  
Bugun ulug' bayramda, Salom deymiz nomma- nom  
Shogirdlarning nomidan Deymiz: salom- assalom!  
Ustozlardir nomingiz, Sharaflı mehnatingiz  
Kuylay baland, ardoqlay, Shogirdlik tuzin oqlab.  
(egilib ta'zim qiladi).

Boshlovchi: Ustoz-muallim! U fidoyi inson. Ustoz ulug' zot! U mag'rur jaranglaydi. Shu birgina so'z zarainida olam-olam ma'no, olam-olam mehnat bor! O'qituvchi sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, axloqiy rok insondir. Ularni har qancha ardoqlasak ham oz, chunki butun kuchlarini, aql idroklarini, bilim va zehnlarni shogirdlariga baxshida etgan zahmatkash insonlardir.

### BOLALAR: BUGUN BAYRAN TANTANA

Bayramingiz muborak.  
Aziz ustoz murabbiy,  
Tantanangiz muborak!  
O'rgatdingiz ona so'zini  
Shu so'z bilan chiqdi savodim  
Hayolimdan chiqmaysiz sira  
Bo'lsin sizga doimo ta'zim

Bolalar:

Agar hayot bo'ston bo'lsa, Bog'bon muallim.  
Agar hayot karvon bo'lsa, Sarbon muallim.  
Agar hayot dengiz boisa, Gavhar muallim

Agar hayot kitob bo'lsa, So'zi muallim  
Chunki udir har insonga Beruvchi ta'lim  
Ta'lim so'zi har narsadan. Ulug' muallim  
Sharaf unga, obro' unga,

***Unga tantana maqtovlarga sazovorsan***

Ey, ulug' ustoz-Ona!  
'o'qituvchim " qo 'shig'i  
Bolalar: Bolalarm deb erkalab,  
Qo'llarimdan yetaklab,  
Berdingiz bizga ta'lim  
Rahmat, ustoz muallim  
Kechalari uxlamay,  
Ko'z nurini sochdingiz  
Biz kabi shogirdlarga  
Bilim mmn sochdingiz  
Yangratib ko'ngil bog'in  
Sizga izhor etayyin  
Siz kabi ustozlarga  
Ming bir ta'zim etayin.  
Bolalar: Dunyoning yorag'ligin  
Ulug' ekanin oftob  
Qalbimni yoz etgan, aziz muallim

**Fikrimni yod etgan, aziz muallim**

Bolalar:Aziz ekanin kitob  
Takrorlar ekantilim  
Siz dilimda muallim

**Bolalar: Abadiy haxt sari yo'llovchi ustoz**

Bilmaganim ayon aylovchi ustoz,  
Qalbimdan jaholat zangini yuvib  
Ma'rifat nurini joylovchi ustoz.  
Odamlar muratozi ustozim mening,  
Qalbimning parvozi ustozim mening,  
Qanchalab hamrozi bo'lmasin dilim  
Haqiqiy hamrozi -ustozim mening.  
"Muallim" qoshig'i.

Bolalar: Ko'z o'ngimda ochdi  
dunyo muallim,  
Yo'llarimga sochdi ziyo muallim,  
Go'dak edim ona kabi parvarishlab,  
Ulg'aytirdi meni dono muallim

Bolalar: Mehringiz jo'shqin daryo,  
Qalbingiz cheksiz dunyo  
So'zingiz gavhar alo  
Sizga ming-ming ta'zim  
Aziz inson muallim

Bolalar: Ertamizni o'ylaymiz,  
Nurli yo'lga shay lay siz ustoz  
Mehr-la ardoqlaysiz, ustoz!  
Sog'-omon boling doim  
Baxtga posbon muallim.

Boshlovchi: Aziz ustozlar! Sizlarga doimo kulgu, quvonch, mehr va oqibat, sahovat va muruvvat, vafo sahiylik yor bo'lsin!

Bolalar: Aziz ustozlar shunday so'zimiz,  
Chin insonlaming o'g'il-qizimiz,  
Ustoz o'gitiga, sadoqatiga  
Doim tayyormiz,  
Bizning o'zimiz.

Boshlovchi: Bugun ustozni ulug'lar ekanmiz, bobokalon shoirimiz Mir Alisher Navoiyning ustoz sha'niga aytgan so'zlarini eslamay ilojimiz yo'q:

Haq yo'lingda kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,  
Aylamak oson emas haqqin ado yuz ganj ila.

Bolalar: Ustoz qator-qator shogirdlarni tarbiyalar ekan, albatta shogirdining kamolotini ko'rib ko'zi quvonadi. Shogirdlariga oq yo'l tilaydi. Har qadamda shogirdlariga yordam qo'lini cho'zadi. Shogird ham ustozni izidan borib, yetuk inson bo'lib yetishishga harakat qiladi.

P. Mo 'minning "Ustozlar" qo 'shig'i kuylanadi

O'quvchi: Bilim oldik shu makondan  
Rahmat sizga ey ustozlar  
Bizni olgan o'z bag'riga  
Qalbi daryo mehribonlar

Qo'shiqlar kuylanadi va raqsga tushadilar.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QOMUSINING  
19 YILLIGIGA BAG'ISHLAB O'TKAZILGAN BAYRAM ERTALIGI  
SENARIYSI**

(Musika zali bayramona bezatilgan. Bolalar Marsh musika sadosi ostida musika zaliga kirib keladilar).

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi

1-boshlovchi:

- Havas qilsa arzigulik, baxtim bor,  
Nurli yo'lga boshlaguvchi ahdim bor.

Fidodurman toki tanda jonim bor,

Men elimning Qomusini kuylayman!

2-boshlovchi: - Assalomu alaykum azizlar, qalbi otash, mehri quyoshlar. Mana bugun Qomusimizning 19 yillik bayrami munosabati bilan Baxtnomamizni kuylash sharafiga ega bo'lib turibmiz. Bayramga bag'ishlangan tadbirni, marhamat, tomosha qiling!

*(Sahnaga bir guruh bolalar chiqishadi va bir qatorga tizilishadi. Qo'llaridagi harflar yordamida «Baxt», «Qomusimiz» so'zlarini hosil qiladilar. Ular she'r o'qiydilar. Harflar tilga kiradi).*

- Jahonda eng baxtlilarning biriman,

Men elimning Qomusini kuylayman.

Go'zal yurtim, iftixorim

- Vatanim, Baxt-iqbolin, saodatin kuylayman!

Hur elimning dovrug'i bor tillarda,

O'zbekiston Madhiyasi dillarda.

Ozod bayroq hilpiraydi qo'llarda,

Doston bo'lgan baxtimizni kuylayman!

Mana, ko'ring, havas qiling, Unib o'sgan - Hidoyatdan. Saodatli elga baxt yor, Iymonu e'tiqodim bor. Munisgina onam kabi, Istiqlohim baxtinga yor.

Hamma: - Zavol ko'rmas iqbolim bor!

Qo'shiq «O'zbekistonim»

1-boshlovchi:

-Baxtiyorman hur elimning,

Adolatli shioridan,

Xalqim dildan ulug'lagan,

Tafakkuri, qaroridan.

Qoyil qolsin ro'i zamin,

Odillikdan, adolatdan.

*(O'zbekiston qo'shig'i. M.Dadaboev musiqasi).*

1-boshlovchi: - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z xalqining huquqlarini himoya qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga erishish, tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Biz uni g'urur bilan «Baxtimiz Qomusi», deya ataymiz.

2-boshlovchi: - Konstitutsiyamiz 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan.

*(Bolalarga murojaat etadi).*

- Qani, bolalar, Konstitutsiyamiz haqida siz nimalarni bilasiz?

*(Bolalar faxr bilan Qomusimiz haqida bilganlarini bayon etishadi).*

**Maftuna:** - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim va 26 bobdan iboratdir.

**Adhamjon:** - 2003 yil 24 apreldagi O'zbekiston

Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

**Bekzod:** - Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari Qomusimizning 2-bo'lim V, VI, VII, VIII, IX, X, XI boblarida bayon etilgan.

**Ma`suma:** - Konstitutsiyaning 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga egadir. Bepul umumiy talim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari nazoratdadir», deb yozib qo'yilgan.

**Mubosher:** - 65-moddada: «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deya belgilab qo'yilgan.

1-boshlovchi: - Bolalar, men juda xursand bo'ldim. Sababi, siz Qomusimiz haqida yetarli ma'lumotga egasiz. Bundan keyin ham o'qish, o'ganish sizning bosh maqsadingiz bo'lsin!

2-boshlovchi: - Yana sahnaga bayram qatnashchilaridan bir guruhini taklif etamiz.

**Abduqodir:**

-Iymonli                      elimning                      baxtli                      farzandi,  
Mehnatdan baxt topgan asalu qandi.

Farovon zamonam porloq dilbandi,

Hamma birgalikda:

-Baxtliman buyuk Qomus sharofatidan,

## Istiqlolim uor ochgan adolatidan!

**Shohjahon:**

-Mustaqil diyorimni himoya etgan, Dono, hur fikrlari jahonga yetgan. El-yurtim qalbidan g'uborlar ketgan, Hamma birgalikda:

- Baxtliman buyuk Qomus sharofatidan,

## Istiqlolim yor ochgan adolatidan!

**Muhammad:**

- G'amxo'rdir Vatanim, bizga mehribon,

Baxtimizga baxt qo'shar erkin, farovon.

Kelajagim porloq, yo'lim nurafshon,

Hamma birgalikda:

- Baxtliman buyuk Qomus sharofatidan,

## Istiqlolim yo'l ochgan adolatidan!

**Akbar:**

- Har tomon uzatsam yetar qo' Ila rim,



Istiqbolga yuz tutgan o'ngu-so'llarim.

Nurlarga ko'milgan oydin yo'llarim,

Hamma birgalikda:

- Baxtliman buyuk Qomus sharofatidan,

Istiqlolim yo'l ochgan adolatidan!

*(Bolalar ta'zim qilib chiqib ketadilar).*

Adham:

Biz kim turkiy avlodmiz

Navoiyga zurriyodmiz

Milliy durdonalardan

Tanovorni sevamiz

(qizlar ijrosida tanovor musiqasiga raqs tushiladi)

2-boshlovchi:

-Huquqimiz, bayon etguvchi,

Har moddasin bilib olsak bas.

Bizni doimo himoya etar,

U barchaga birday muqaddas!

1-boshlovchi:

- Bolalar bor: oq, sariq, qora,

Lekin qalbi toza, beg'ubor.

Ular dili orzuga to'la,

Gard qo'nmasin, qo'nmasin zinhor!

Jajji qalblar intilar tinmay,

Poyoni yo'q koinot tomon.

Yuragiga o'kinch tushmasin,

Kelajagi bo'lsin hur zamon!

*(Vatan haqida qoshiq ijro etiladi).*

2-boshlovchi: - Azizlar! Konstitutsiya kitobi bilan uning hamrohini ham bayramimizga taklif etganmiz. Mehmonlarni kutib oling.

*(Sahnaga Konstitutsiya kitobi va uning hamrohi tashrif buyuhshadi).*

Konstitutsiya kitobi:

- Men baxtnoma - kitobman,  
Aql hamda idrokman.  
Kimki meni o'qisa,  
Manguga men hamrohman.  
Yo'l ko'rsatib - charog'on  
Sizni qilay farovon!

Ibrohim:

- Sendan topdim baxtimni,  
Xuquqimni, ahdimni.  
Yo'lim nurafshon bo'ldi,  
Ko'nglim zavqlarga to'ldi.  
Sahifangni o'qisam,  
Satrlar bor biz uchun.  
Kelajak himoyangda,  
Bundan ortiq baxt qayda?

Konstitutsiya kitobi:

- O'qib olsang, kundan-kun, Fikring bo'ladi durkun. Huquqlaring bilib ol,  
Hayotda yur bermalol!

A'lo o'qisang har ishda, Dono bo'lsang yumushda, Bilginki, sen ustuvor,  
Hayotda bu - poydevor! Gaplarimni unutma Vaqt o'tadi, sen kutma! O'qi, bedor  
bo'lsang ham, Hayotda bo'lmaysan kam.

**Rasuljon:**

- Haq gaplaring muloyim,  
- Esdan chiqmaydi doim.  
- Qo'limdan hech qo'ymayman,  
- O'qiyverib to'ymayman!  
- Hamrohimsan, baxtimsan,  
- Ko'nglimdagi ahdimsan!

**Axrorbek:**

- Iqbolimiz ko'zlagan,  
Adolatdan so'zlagan.

Bu bizning «Baxtnomamiz»

Yayrab undan qonamiz!

Baxtimizga yo'l ochgan.

Iqbol urug'in sochgan,

Qomusimiz bir jahon,

Dovrug'i bo'lsin doston!

O'quvchilar jo'rlikda:

- Mo'tabar ona-Vatan,

Sadqa bo'lsin jonu-tan!

*(Bolalar bayroqchalar bilan Istiqlol raqsiga tushishadi)*

1-boshlovchi: - Aziz o'quvchilar, muhtaram ustozlar, hurmatli ota-onalar, qadrli mehmonlar! Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Qomusining 17 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetdi. Sizlarni yana bir bor qutlug' ayyom bilan muborakbod etamiz.

*(Dasturimiz so'ngida bolalarimiz tinchlik haqida qo'shiq kuylaydilar)*

2-boshlovchi: - Shu go'zal Vatanda yashar ekan, barcha fuqaro o'z huquqini bilsin, o'zligini tanisin! Vataniga munosib farzand bo'lsin, o'z yurtini ardoqlasin. Shunda baxt-iqbolimiz but bo'lg'ay, azizlar!

Shuning bilan bugungi bayram ertaligimiz nihoyasiga yetdi. Konstitutsiya bayrami guruh xonalarida davom etadi.

*(bolalar Marsh musiqasi ostida musiqa zalidan chiqib ketadilar)*

Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kunlariga bag'ishlangan «Z.M.Bobur  
hamisha barhayot» mavzusida o'tkazilgan tadbir  
SENARIYSI

1-o'quvchi: Assalom dastlarim

Assalom ustozlar  
Tinchlik va omonlik  
Xush bo'lsin sizga  
Mirzo Boburning  
Ruhi yor bo'lsin  
Kecha o'tkazamiz  
Qo'shiling bizga

Assalom ustozlar, qalbi quyosh o'quvchilar. Inson tug'ilibdiki ko'kka intiladi, samoga intiladi, nurga intiladi. Nurni esa adabiyot berar ekan. Bu maydonda qalam surgan taniqli zotlarni eslamaklik, sharaflamaklik bizlarga sharaftir.

1-boshlovchi: Biz yaxshi bilamizki, sharq adabiyotida munosib o'rin olgan shoh va shoir, adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng e'tiborli vakili, temuriy shahzodalarning eng salohiyatli namoyandalaridan biri Z.M.Boburdur

1-boshlovchi:

*Beqaydmen-u xarobi suym ermasmen  
Ham mol yig'ishtirar laim ermasmen  
Qobulda iqomat etti Bobur dersiz  
Andoq demangizlarkim muqim ermasmen*

Bobomiz Bobur o'z yurtlariga qaytishga qanchalik urinmasinlar, unga erisha olmaydilar. Minglab odamlarning behuda nobud bo'lishini istamaydilar. Ko'ngilda bir andisha bilan Hindistonga yo'l oladilar. O'zlarini dunyoda eng baxtsiz odam hisoblaydilar, chunki ular ona yurtlarini tashlab chiqib o'zga yurtida podsholik qiladilar. Bu esa Bobur uchun xato ishlar edi.

*Tole yo'g'i jonimga balolig' bo'ldi  
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi  
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim*

*Yo Rab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi.*

1-boshlovchi:

Yozmishman ko'nghimni tah-batan qon deb

Elimda qadolik qilardim jon deb

Buyuk Hind sig'ingan shohi sulton deb

Mirzo Boburmen

1-boshlovchi

Endi Z.M.Boburning g'azal va ruboiylaridan tinglaymiz.

O'quvchilar g'azal va ruboiylardan aytadilar.

1-boshlovchi:

Hayotda xorlik va zorlikni shon-shavkat va tantanani keragidan ortiq tortgan bu noziktab shaxs yirik davlat arbobi bo'lishi barobarida yetuk lirik shoir, iste'dodli tarixnavis hamda barkamol olim edilar.

Endi navbat sahna ko'rinishiga

Ko'rinish tugagach navbat Shahzodaxonga. U E.Vohidovning «Hazrati Bobur» she'rini aytib beradi.

Mana azizlar shu bilan bobomiz Z.M.Bobur tavalludlariga bag'ishlab o'tkazgan adabiy kechamiz o'z nihoyasiga yetib bormoqda.

1-boshlovchi:

Kechamiz so'ngida yana bir dilbar raqsni tomosha qilinglar

Marhamat!

2-boshlovchi:

Samarqand holini so'rolmay ketgan

Yurtiga yuzini burolmay ketgan.

Ustoz Alisherni ko'rolmay ketgan

Mirzo Boburmen

2-boshlovchi:

Bu dunyoda kuy va qo'shiqni yaxshi ko'rmaydigan inson bo'lmasa kerak. Kuy va qo'shiq kayfiyatni ko'taradi. Davraga qizlarni taklif etamiz. Ular ijrosida raqs tamosha qilasiz.

2-boshlovchi:

U o'zining boshidan kechirgan barcha voqealar, o'zi ko'rgan va kezgan joylar, o'zi bilgan va o'zi uchratgan shaxslar haqida mukammal ma'lumot beruvchi «Boburnoma» asarini yaratdilar, bu asar XVI asr o'zbek badiiy tarixiy nasrining go'zal namunasi sanaladi.

O'quvchilar Andijon ta'rifida Samarqand ta'rifida deb boshlangan «Boburnoma» asaridan ifodali qilib aytib beradilar.

2-o'quvchi:

Sizning ko'nglingizda shoh va shoir Z.M.Bobur Mirzoga bo'lgan qiziqishlaringizni uyg'ota olgan bo'lsak, biz o'zimizni baxtli hisoblaymiz.

2-boshlovchi:

O'zbekiston gul diyorsan  
Gullaringdan aylanay  
Hech bir tilga qiyosi yo'q  
Tillaringdan aylanay

Assalomu alaykum muhtaram kechamiz qatnashchilari. Mana bugun 14-fevral Z.M.Bobur bobomizning tavallud kunlarini nishonlash uchun to'plandik.

2-boshlovchi:

Z.M.Bobur 12 yoshlarida taxtga o'tiradilar. Ular juda ham ko'p jangu jadallarda qatnashadilar. 19-20 yoshlarda g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari. Ular Samarqandni 2 marta olib 2 marta tashlab chiqishga majbur bo'ladilar. Andijon hiyonatchilar qo'liga o'tgan. Ikki uch yil tog'-u toshlarda sarson-sargardon yurdilar. Nihoyat hammasi jonga tegib bir qarorga keldilar. Amudaryodan o'tib Qobul va G'azna shaharlarini jangsiz egallab oladilar. Lekin ko'ngillari doimo ona vatanlarida edi. Ular Vatanlariga qaytish umidi bilan yashaydilar.

2-boshlovchi:

Dunyo charxpalagi aylanaverar ekan, u bir joyda hech qachon qotib qolmaydi deb yozgan edi Konfutsiy. Avestoda esa ezgu o'y ezgu so'z, ezgu amal targ'ib etilgan. Bu davomiylikka Bobur hazratlari ham katta e'tibor bilan qarab umrlari davomida Hind yerlarini ovod qilish, hind xalqi hayotini yaxshilashga intilib yashaganlar.

1-boshlovchi:

Og'uni almashib qandga asalga  
Oxir taslim bo'lib taqdir azalga  
Dardlarini to'kkan nuru g'azalga  
Mirzo Boburmen

2-boshlovchi:

Shohlik qolgan ekan bobomdan meros  
Ne qilsam qildimki temuriylarga xos  
Qo'lida o'ynatgan qilich qalam so'z  
Mirzo Boburmen

1-boshlovchi:

Dehqon o'g'li bo'lib tug'ilmadim men  
Bo'g'ilsam yurtimda bo'g'ilmadim men  
Saodat nurida yo'g'rilmadim men  
Mirzo Boburmen

2-boshlovchi:

Samarqand holini so'rolmay ketgan  
Yurtiga yuzini burolmay ketgan  
Ustoz Alisherni ko'rolmay ketgan  
Mirzo Boburmen

1-boshlovchi:

Bir tilim qovunga tashna jon bergan  
Vatan havosiga ko'ksini kergan  
Musofir yurtlarda ko'ksini kergan  
Mirzo Boburmen

2-boshlovchi:

O'quvchilar endi Boburning g'azal va ruboiylaridan tinglasak

#### TOPMADIM

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim  
Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim  
Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim  
Ko'nglim kibi ko'ngulni giriftor topmadim  
Bore borak eshigiga bu navbat ey ko'ngil  
Nechaki borib eshigiga bor topmadim  
Bobur o'zingni o'rgatako'r yorsizki men  
Istamb jahonni mmuncha qilib yor topmadim.

Malika:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi  
Shod etmas emish ko'ngilni g'urbatda kishi  
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi hech  
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi

Mahliyo

Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimi  
Hasta ko'nglim chekmagan dardu balosi qoldimu  
Meni xor etti-yu qildi muddaig'a parvarish  
Dahri dinparvarning o'zga muddaosi qoldimu

Meni o'ltirdi javoi javr birla ul quyosh  
Emdi turg'uzmak uchun mehri vafosi qoldimu  
Oshiq o'lg'och ko'rdim o'limni o'zimga ey rafiq  
O'zga ko'nglimning bu olamda havosi qoldimu  
Ey ko'ngil gar Bobur ul olamni istar qilma ayb  
Tangri uchun de bu olamning safosi qoldimu

Hilola:

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidur  
Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz  
Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidur  
Dildora

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi  
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi  
O'z yerim qo'yib Hind sori yuzlandim  
Yo Rab netayin ne yuz qarolig' bo'ldi

Naima

Davron meni o'tkazdi saru somondin  
Ayirdi meni bir yo'li xonu mondin  
Goh boshima toj, goh baloyi tana  
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin

Oydina

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi  
Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda  
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi

Ra`no

Sen gulsenu men haqir bulbuldirmen  
Sen shu'lasenu ul shu'lag'a men quldurmen  
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim  
Shohmen elga, vale sanga quldurmen

Muslima: «Boburnoma» Z.M.Boburning butun umri davomidagi esdaliklaridir. «Boburnoma» ham tarixiy, ham badiiy asar. Bobur tabiatan nihoyatda ziyrak, sinchkov va g'oyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan edi.



Assalom Navro'z

*(Musiqqa yangraydi. Sahnaga Navro'zoy bilan Navbahor kirib kelishadi).*

Bolalar *(jo'r bo'lishib)*:

- Salom, Bahor, salom, Navro'z,  
Marhabo, xush kelibsiz!

Navbahor:

- Mana men go'zal bahor,  
Yetib keldim sizlarga.  
Jon kiritdim daraxtlaru  
G'unchalar, ildizlarga.

Navro'zoy:

- Sarpo kiydi bog'-dalam,  
Qirda yoqut piyolam.  
Oftob shulasi alvon,  
Kamalak ko'kda narvon.  
*(Bahor haqida qo'shiq ijro etiladi).*

Boshlovchi: - Bolalar, bu go'zal

bayramni gullarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun davramizga ular ham tashrif buyurishgan. *(Sahnada rang-barang gullar qo'shiq kuylab, raqsga tushishadi).*

Gullar:

-Keldi bahor, keldi ko'klam,  
Bizlar ko'klam elchisi.  
Bizni bahor boshlab keldi,  
Navro'z - bahor kuychisi.

*(Raqs tugagach, kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi. Unda Navbahor, Bo'ron, Quyoshbobo va bolalar ishtirok etadilar. Musiqqa yangraydi. Bolalar Navbahor bilan qol ushlab raqsga tushadilar. Birdan musiqa tinadi. Sahnaga boshlovchi chiqadi).*

1-boshlovchi *(qo'l harakati bilan ifoda etadi)*:

-Birdan osmon qorayib ketdi,  
Bosdi paxmoq bulut galasi.

Ufqlarda chaqmoq yilt etdi,  
Sharros quydi bahor jalasi.  
(*Sahnada Bo'ron paydo boiadi*).

Bo'ron (*jumbushga kelib*):

-Hukmimni o'tkazaman,  
Zahmatlar yetkazaman.

Navbahor (*iltijoli ohangda*):

-Yo'q, yo'q, Bo'ronjon, shoshmagin,  
Ko'p haddingdan oshmagin.

Qahring qattiq bo'masin,  
Gul, chechaklar so'lmasin!

2-boshlovchi:

-Xafa bo'lma, Navbahor,  
Yoningda do'stlaring bor.

(*Bolalarga qarata*):

- Keling do'stlar, Quyosh boboni chaqiraylik.

Atrof nurafshon bo'lsin, Borliq nurlarga to'lsin. Bolalar (*baravariga*): - Quyosh bobo, Quyosh bobo!

(*Quyosh bobo kirib keladi*).

Quyosh bobo:

-Labbay, aziz bolalarim,  
Gulu rayhon, lolalarim.

Ne noxushlik yuz berdi?

-Bolalar (*jo'r bo'lshib*):

- Bo'ron bizni qo'rqitdi. Quyosh bobso:

-Ey, shox qaysar, Bo'ronvoy,  
Ozor berma bog'larga.

Agarda sen mard bo'lsang,

Boraqol muztog'larga.

Bo'ron:

- Xo'p bo'ladi, bobo Quyosh,  
So'zingizga eggum bosh!

(*Bo'ron qo'i silkigancha sahnadan chiqadi. Mayin ohang taraladi.*)

1-boshlovchi:

- Ko'p o'tmasdan Bo'ron tinib,  
Osmon yana billurdek balqdi.  
Butun borliq yana yasharib,

Qizg'aldoqlar zar munchoq taqdi.

*(«Chamandagul» qo'shig'i ijro etiladi).*

2-boshlovchi: - Bahor kelishi bilan chor-atrofni qushlarning yoqimli ovozi tutib ketadi, ulaming sayrashlari kishiga xush kayfiyat bag'tshlaydi. Bayramimizga uzoq janub o'lkalaridan qaytgan qushlar ham mehmon bo'lib kelishibdi. Ularni davramizga taklif etamiz.

O'quvchilar (*qushlarni chorlaydi*):

- Bahor keldi elimizga,

Quvonch to'ldi dilimizga.

Keling, qushlar,

Uching, qushlar.

Bizlar do'stmiz doim sizga.

*(Qushlar davraga qo'shiladi).*

1-boshlovchi: - Bolalar, mana, davrada hamma jam bo'ldi, lekin negadir Dehqonbobo ko'rinmaydi.

*(Shu choq qo'lida bir bog' ko'chat, shoshgaritcha Dehqonbobo kirib keladi).*

Dehqonbobo: - Assalomu alaykum, aziz bolalarim, omonmisiz? Qutlug' ayyom - Navro'zingiz muborak bo'lsin!

Bolalar: - Rahmat, Dehqonbobo. Sizning ham bayramingiz qutlug' bo'lsin!

Dehqonbobo: - Qarang-a, bayram tadorigi tufayli xalqimiz boshlagan xayrli tadbir - umumxalq hashari, obodonchilik ishlari, yurtimiz husniga beqiyos ko'rku tarovat bag'ishladi. Har qadamda qutiug' ayyom, Navro'z nafasi ufurmoqda. Ko'rib ko'zlar quvonadi shu xayrli ishlerga deya daraxt va gil ko'chatianb keltirdim.

Ulami maktabingiz bog'iga ekib, mehr bilan parvarish qiling. Bog'u gulzorlar yaratishda o'z hissangizni qo'shing.

*(Ko'chatlarni ularga beradi).*

2-boshlovchi; - Rahmat, bobojon. Himmatingizga tasanno. Bolajonlarimiz albatta, ko'chatiaringizni ekib, parvarish qiladilar. Siz kabi bobodehqonlarimiz, sohibkorlarimizning mehnatlari tufayli yurtimiz obod, dasturxonlarimiz to'kin. Istardikki, bu yilgi ko'klam ham dalalaringizga qut olib kelsin.

*(Magnit tasmasidan «Navro'z kelibon» qo'shig'i yangraydi, qizlar raqsga tushishadi. Raqs tugagach, Navbahor bolalarni topishmoq bazmiga chorlaydi):*

- Bolajonlar boshlaylik,

Yalla, navo-nazmini,

Savol-javob, topishmoq,

Topag'onlar bazmini

Navro'zoy topishmoq aytadi:

- Yashnar ko'k maysa,

Eh, qanday maza.

Ko'kda kun kular,

O'rikda gullar.

Bu qaysi fasl? Bolalar:

- Topdik, bu go'zal

Navro'z - gul fasli.

Navbahor:

- Ko'klam kelsa unadi,

Oftob chiqsa kuladi.

U bahorning elchisi Buni hamma biladi.

olalar (Jo'r bo'lishib):

Uning nomi - boychechak, Ko'klamdagi ilk chechak. Navro'zoy:

- O'zi qizil, go'zal birarr

Qirga yozar alvon gilam.

Bolalar: - Budir lolaqizg'aldoq,

Ko'zing quvna ko'rgan choq.

Navbahor:

- Qozonsiz qaynar erta-kech,

Suvda qo'ling kuymaydi hech?

Bolalar:

- Bu buloqdir, bilamiz,

Ichib mazza qilamiz.

1-boshlovchi: - Oikamizda Navro'z shodiyonalari davom etmoqda. Saylgohlarda o'yin-kulgu, kuy-qo'shiq avjida. «Sihat-salomatlik yili»ning go'zal IMavro'zi tinchlik-omonlik, rizq-ro'z va qut-baraka olib kelsin, deya duo qilishmoqda nuroniy keksalarimiz. Biz ham ulaming rok niyatlari ijobat bo'lishini dildan tilaymiz. Chunki osoyishta yurtning bog'larida hamisha bahor kuladi.

2-boshlovchi: - Mana, azizlar, Navro'zga bag'ishlangan bugungi ertafigimiz ham nihoyalab qoldi. Sizlarni yana bir bor qutlug1 ayyom bilan muborakbod etamiz. Navro'z barchamizga baxt-saodat olib kelsin, chehralarimizdan hech qachon kulgu arimasin.

*(Mayin musiqa sadolari ostida ertalik yakunlanadi).*

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, “Ma'naviyat”. 2008 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 19 yilligi bayramiga bag'ishlab so'zlagan ma'ruzasi. “Ma'rifat” gazetasi. 2010 yil, 10-son.
3. J. Yo'ldoshev. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. –Toshkent, “Cho'lpon”. 2000 yil.
4. Z.M. Bobur. “Boburnoma”. –Toshkent, “Ma'naviyat”. 1998 yil.
5. B. Qo'chqorov. Sinf dan tashqari ishlarning ahamiyati. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2006 yil, 7-son.
6. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2011 yil 3-son.





